

ODAM SAVDOSI – INSONIYAT KUSHANDASI

Abdurazzaqov Shaxzodxo'ja*Namangan davlat universiteti**Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada odam savdosi tushunchasi, uning xalqaro uyushgan jinoyatchilikning ko'rinishlaridan biri ekanligi haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, odam savdosining ko'rinishlari, bu faoliyatning elementlari ko'rsatilib o'tilgan. Odam savdosiga qarshi qilanayotgan ishlar va chiqarilayotgan qarorlar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Oq qulchilik, "Qullik xususida"gi Konvensiya, "Qullikni yo'qotish amaliyoti to'g'risida"gi qo'shimcha Konvensiya, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya, "Ayollarga qarshi diskriminatsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi to'g'risida"gi Konvensiya, "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya*

Sayyoramizda bir qator global muammolar borki, bular sirasiga bevosita odam savdosi singari transmilliy jinoyatlarni ham kiritish mumkin. Yildan-yilga bu illatdan jabr chekayotganlar, uning qurboni bo'layotganlar soni ortib bormoqda. Hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Odam savdosidek og'ir jinoyat inson hayoti, erkinligi va huquqlarini poymol qilib, uning erki, taqdiri va kelajagini oyoq osti qilishi bilan naqadar jirkanch ko'rinishga ega.

Odam savdosi – inson, uning qadr-qimmatini, sha'ni, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgani, eng asosiysi o'z girdobiga asosan yoshlar va ayollarni tortayotgani barchani birdek katta tashvish va qo'rquv uyg'otmoqda.¹

Mazkur muammo chegara bilmasligi, rivojlangan, rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan davlatlar deb ajratmasligi ham hammamizga ma'lum. Ushbu muammo nizolar girdobidagi davlatlar uchun ham, tinch yashayotgan davlatlar uchun ham xos bo'lib, ko'p katta boyluk orttirish va shahvoniy maqsadlar bilan bog'liq bo'lgan mazkur muammo bir vaqtning o'zida jamiyat a'zolarining axloqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Oq qulchilik" deb nomlangan ushbu holat XX asr boshlarida yuzaga keldi. 1904 yilda Yevropaning ko'pchilik davlatlari mazkur holatga qarshi kurashda hamkorlik qilish bo'yicha Parijda Xalqaro shartnoma imzolanganlaridan so'ng "oq qulchilik" atamasi paydo bo'ladi. Odam savdosining ko'proq tayaniladigan ta'rifi xalqaro amaliyotda Palermo bayonnomasi nomi bilan mashhurdir. "Odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosini oldini olish va bartaraf etish, buning uchun jazolash haqida"gi bayonnomada aks etgan.

¹ Qodirov R. Odam savdosi – umumjahon miqyosdagi muammo // Xalq so'zi, 2008, 17-oktabr

Kuch ishlatish yoki majbur qilishning boshqa shakllari, o'g'irlash, firibgarlik. Aldov, hokimiyatdan yoki ahvoli nochorligidan foydalanish yoxud bir shaxsni nazorat qiluvchi ikkinchi shaxsni to'lov yoki foyda keltirish orqali sotib olish yo'li bilan odamlardan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish hamda qabul qilib olish odam savdosi hisoblanadi.

Odam savdosi esa insonning erkinligi, tengligi va shaxsiy daxlsizligiga bevosita putur yetkazadi, uni turli xo'rlik va kamsitishlariga duchor etadi. Odam savdosi deb atalmish ushbu mudhish zamonaviy faoliyat ortida majburiy mehnat, zamonaviy qullik, zamonaviy donorlik, harbiy to'qnashuvlarda foydalanish, fohishabozlik bilan shug'ullanishga majburlash kabi qabix, qonunga zid qilmishla mujassamdir.

XXI asr globallashuv asrida butun dunyoda odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar bilan bog'liq jinoyatlar ko'lami ortib bormoqda. Shu asnoda odamlarni turli maqsadlarda ekspuluatatsiya qilishning ijtimoiy havflilik darajasi yanada ortmoqda.

Odatda, odam savdosi bo'yicha jinoyatlar ko'pincha ma'naviy qashshoqlik, ongning, dunyoqarashning pastligi, ochko'zlik, mol-dunyoga xirs qo'yish, oson va tez boyishga bo'lgan intilish hamda o'z nafsiga qul bo'lish kabi illatlar tufayli ro'y beradi.

Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar odamlarni nafaqat jinsiy yoki mehnat eksplutatsiyasi uchun, balki ularning ichki organlarini transplantatsiya qilish, narkotik moddalarni tarqatish, boshqa turdagi jinoyatlar sodir etish uchun ham yollab majburlamoqdalar.²

Birlashgan Millat Tashkiloti va Xalqaro ekspertlarning ma'lumot berishicha, har yili dunyo miqyosida 2 million 700 ming kishi odam savdosi qurboniga aylanadi. Ushbu jinoyatchilikdan tushayotgan noqonuniy daromad esa 9.5 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, boshqa mutaxassislar mazkur bozorning umumiy aylanma mablag'lari 19 mliard dollor ekanligini ta'kidlab o'tishgan. Dunyo miqyosida har yili 600 mingdan 800 ming nafargacha ayollar va bolalar aldov yo'li bilan chet ellarga olib ketilib sotiladi. Ayniqsa, odam savdosidan jabrlanganlarning 80 foizini ayollar yoki yosh bolalar tashkil etayotgani ayanchli holatdir.³ XXI asrning jiddiy jinoyati sanalmish odam savdosi tufayli yiliga 10 million bola qullik balosiga giriftor bo'lmoqda.

I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" nomli kitobida ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o'rni, ayniqsa. yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs qilib kamol toptirish, hozirgi davr uchun naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligi asoslab berildi. Ushbu asarda marhum yurtboshimiz ta'kidlab ko'rsatadiki: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli. bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirililigimizni qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim

2 Jamoliddinov A. Odam savdosi asr muommosi. Namangan haqiqati №52(19257). 2018,29-iyun

3 Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konvensiyasi \ Convention against Transnational Organized crime, 2000\ http: \\www.un.org. \ russion \ document \ convents \ orgcrime.htm

ishni o'z holiga tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib ohir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib ketishimiz mumkin"⁴

Bugungi kunda odam savdosi inson, uning sha'ni qadr-qimmatini, shaxsiy daxlsizligi, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan, insoniyat sivilizatsiyasiga ochiqdan – ochiq to'siq bo'layotgan, jamiyat taraqqiyoti va davlat rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotgani, o'z domiga asosan ayollar va yoshlarni tortayotgan jinoyatchilikning xavfli ko'rinishlaridan biriga aylanib borayotganligi, odam savdosi muammosi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hodimlarini, balki keng jamoatchilikni ham qattiq tashvishlantirayotganligi ayni haqiqat.

Odam savdosi jinoyati sodir etilishi turli usullarda sodir etilishi mumkin, ya'ni a) kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish; b) o'g'irlash; v) firibgarlik; g) aldash; d) hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali; e) boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali.

Odam savdosiga qarshi kurashish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayollarning Yevropadan Amerika va Shimoliy Afrika qit'alariga keng ko'lamli migratsiyasi hamda ayollarni Yevropaga sotish hodisasi kuzatilgan. Bu hodisaga barham berish maqsadida Parijda 1902 va 1910 yillarda ikkita konferensiya o'tkazilib, "Oq qullar savdosiga qarshi kurash" nomli butunjahon Konvensiyasi qabul qilingan. Keyinroq ushbu konvensiya "Ayollar va bolalar savdosini yo'qotish" va "Voyaga etgan ayollar savdosini yo'qotish" nomli butunjahon Konvensiyalari bilan to'ldirilgan. Odam savdosi muammosiga qarshi kurashishning keyingi tarixiy jarayonlari sekin-astar iivojlanib, 1948 yilda "Inson huquqlari" umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilingan. Shundan so'ng "Inson huquqlarining Yevropa Konvensiyasi", "Qullik xususida"gi Konvensiya, "Qullikni yo'qotish amaliyoti to'g'risida"gi qo'shimcha Konvensiya, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya, "Ayollarga qarshi diskriminatsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi to'g'risida"gi Konvensiyalar qabul qilinib, dunyoning ko'plab mamlakatlarida qo'llanila boshlandi.⁵

Ayni paytda transmilliy uyushgan jinoyatchilikning uzviy tarkibiy qismi bo'lgan bu turdagi jinoyat dunyo miqyosida keng tarqalmoqda. BMT va Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot mutaxassislarining tahliliy xulosalariga ko'ra, undan jabr ko'rganlar soni bir necha millionlarni tashkil qilmoqda. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning asosiy qismini ayollar va bolalar tashkil qilmoqda. Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida yurtimizda ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilib

4 Karimov I.A. Vatan sajdagoh muqaddasdir. 3-jild– T.:Ozbekiston.1996

5 Фозилов И.Ю. Одам савдоси жиноятининг ҳуқуқий тавсифи // Узбекистонда диний ва дунёвий қадриятлар уйғунлиги. Илмий-амалий конференция материаллари, Тошкент давлат Ислам университети, 2009. - Б. 78-82.

kelinyapti. Shu bilan birga, odam savdosi transmilliy, ya'ni hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olinib, davlatimiz 2003 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950 yilda qabul qilingan "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shildi.⁶ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2000 yil 15 noyabrdagi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya, shuningdek, odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalarni sotishning oldini olish, unga chek qo'yish va buning uchun jazolash to'g'risidagi qo'shimcha protokol ham ratifikatsiya qilindi.⁷ Shuningdek, mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilik, shu jumladan, odam savdosining xavfli ko'rinishlariga qarshi kurash haqida bir qator shartnoma va kelishuvlar imzolandi¹. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ham qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining 2008 yilning 17 apreldagi "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni va Respublikamiz Birinchi Prezidentining 2008 yil 8 iyuldagi "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.⁸ "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" O'RQ-406-son (2016) Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, Respublikamiz rahbari Shavkat Mirmonovich Mirziyoev BMT Bosh assambleyasining 72 sessiyasida inson huquq va erkinliklari masalasiga alohida e'tabor qaratgani, 2017 yil 24 iyun «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 16 dekabr «O'zbekistonda Islom akademiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 aprel 196-son «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi, 2014 yil 20 yanvar 10-son «Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gigiqaror va farmonlar mamlakatimizda odam savdosi jinoyatiga qarshi kurashishning milliy qonunchilik asoslarini yaratib berdi.

Joriy yilning 30 may kuni O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning topshirig'i bilan 156 nafar vatandoshimiz Yaqin Sharqdagi qurolli harakatlar davom etayotgan nuqtalardan O'zbekistonga qaytarildi. Respublika maxsus xizmatlari tomonidan xorijiy hamkorlar bilan birgalikda amalga oshirilgan «Mehr» nomli mazkur amaliyot doirasida vatanga qaytarilganlarning asosiy qismini ayollar va yosh bolalar tashkil qiladi. Jumladan, ulardan 48 nafari ayollar va 107 nafari esa yosh bolalardir.

6 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Birlashgan Millatlar Tashkiloting Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qarori \ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2003, 9-10-son, 150-modda

7 Razzoqova F. Odam savdosi asr muommosi. Namangan haqiqati №54(19466). 2018,7-iyul

8 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – T.: "O'zbekiston",2008.

O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligi bayonotiga ko‘ra, ushbu gumanitar amaliyot inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi asosiy xalqaro hujjatlarga to‘liq rioya etgan holda, shuningdek, xalqaro gumanitar huquqning me‘yor va tamoyillaridan kelib chiqib amalga oshirildi. «Bu xorijiy jangari-terroristlar bilan aloqador hamda terrorizm qurbonlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayollar va bolalarga yordam ko‘rsatish muhimligi BMT Xavfsizlik kengashining 2396-rezolyutsiyasi bilan ham tasdiqlangan», deyiladi bayonotda.

Toshkent xalqaro aeroportidagi kutib olish tadbirida qatnashgan Kun.uz muxbiri tadbir jarayonlarini yoritishi bilan birga ekstremistik va terroristik tashkilotlarning g‘oyalari qurboni bo‘lgan turmush o‘rtoqlari yoki boshqa yaqinlari ta‘sirida o‘ylamay qadam bosgan ayollar va ularning bolalaridan bir nechtasi bilan suhbatlashdi.

«Ismim Fotima, yoshim oltmish beshda. Bundan besh yil avval qizim va uch nabiram bilan o‘sha davlatdagi tanishlarimizning uy bepul, sizlarga ko‘p pul beradi, degan va‘dalariga ishonib Suriyaga ketdik. Ko‘p vaqt o‘tmay bizni chaqirgan yigitlarning o‘zlari ham urushda o‘lib ketishdi.

«Bizni qutqarib olgan insonlarning barchasidan Alloh o‘zi rozi bo‘lsin. Eng oxirida bizni kurdlar qo‘lidan qutqarib olish ham oson bo‘lmadi, lekin mana shu yigitlarimiz qat‘iy turib bizni olib kela olishdi. Bir bor adashdik, bizni kechirishlarini so‘rayman», deya ko‘ziga yosh oldi Fotima opa.

«Dadam urushda o‘ldi, endi maktabda o‘qimoqchiman» (Birinchi suhbatdosh Zarina, 11 yoshda) «U yoqqa (Suriyaga – tahr.) 3 yil avval dadam, onam bilan ketganmiz. Bu yerga (O‘zbekistonga – tahr.) onam bilan qaytdik. Dadam urushda o‘ldilar. Suriyada maktablar yo‘q edi, endi men ham maktabda o‘qimoqchiman». Navbatdagi suhbatdoshimizning taqdiridagi bu kabi o‘zgarishlarga oiladagi oddiy kelishmovchilik va oilaboshi - erkak kishining o‘ylamasdan aytgan so‘zi (taloq – tahr.) sabab bo‘lgan. «Turmush o‘rtog‘imning shu so‘zidan keyin uni qaytib olish mumkinmi, yo‘qmi bilish maqsadida internet saytlariga kira boshladim. Internet saytlardan savolinga javob izlab, Suriyada yashayotgan o‘zbek millatiga mansub bir kishi bilan tanishib qoldim. U Toshkent davlat yuridik universitetini tamomlagan, shu sohada ko‘p yillar ishlagan kishi ekan. Mening diniy masaladagi savollaringa ham javob berardi, hatto menga taloq masalasida fatvo berdi, afsuski, bu ma‘lumotlarning ko‘pi yolg‘on ekanligini kech bildim. U doim bu yerda kuchli diniy bilim olasan, ko‘p pul ham topasan derdi. Shu va‘dalarga ishonib, gulday qizimni tashlab Turkiya Respublikasi orqali Suriyaga ketdim. Internet orqali tanishgan o‘sha inson meni Turkiya chegarasida kutib oldi va Suriyaning Raqqa shahriga olib ketdi. Suriyadagi hayot haqiqatda og‘ir edi. Ayollarga yonida erkak kishi bo‘lmasa ko‘chaga chiqish mumkin emas. Fikrimcha, inson ko‘rishi mumkin bo‘lgan eng nohaq hayot tarzi aynan o‘sha urush ketayotgan mamlakatda edi. Biz hozir qaytib kelgan joylarda hamon fransuzlar, inglizlar, malayziyaliklar, umuman, juda ko‘p millat kishilari yashashadi. Yaqinda bizni ushlab turgan kurd askarlari bizni vatanimizga olib ketish uchun yordam kelayotgani haqida

aytishdi. Buni eshitgan boshqa millatdagilar bizga shunchalik havas qilishdiki, men o'sha paytda ilk bor o'zbek ekanligimdan, bizni yaxshi ko'ruvchi insonlar, millatdoshlarim borligidan faxrlanib ketdim, ko'p yig'ladim», deydi Shahrizoda Fayzullayeva.⁹

Aldov oqibatida o'zga yurtga borib qolib, og'ir hayotiy davrni boshidan o'tkazgan bu insonlarga endilikda hukumatimiz tomonidan tibbiy, psixologik, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilmoqda. Ularning tinch hayotga qaytib, jamiyatga moslashishlari, ta'lim va ijtimoiy dasturlarda ishtirok etishlari uchun zarur sharoit yaratiladi, boshpana va ish bilan ta'minlash choralari ko'rilmogda.

Shukrki, yurtimiz tinch, xalol mehnat qilib yaxshi yashayman deganodam uchun hamma imkonita bor. Kishini hayron qoldiradigan jihati, o'z yurtida ishlab pul topishga eringan odam o'zga elda nimani qoyillatar ekan. Bu haqida bugun mahallalarimizda ham doimiy ravishda tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar mazmun-mohiyati, avvalo, inson manfaatlari, uning haq-huquqlarini himoyalash, tushmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan. Baxtni chetdan izlab aldanmang! Haqiqiy baxt o'z uyingizda, o'z yurtingizda sizga muntazir. Faqat uni asrab-avaylashga har birimiz mas'ulmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh muqaddasdir. 3-jild– T.:Ozbekiston.1996.
2. *Фозилов И.Ю.* Одам савдоси жиноятининг хукуций тавсифи // Узбекистонда диний ва дунёвий цадриятлар уйФунлиги. Илмий-амалий конференция материаллари, Тошкент давлат Ислон университети, 2009.
3. Jamoliddinov A. Odam savdosi asr muommosi. Namangan haqiqati №52(19257). 2018,29-iyun
4. Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konvensiyasi \ Convention against Transnational Organized crime, 2000\ [http: \www.un.org. \russian \document \convents \orgcrime.htm](http://www.un.org/\russian\document\convents\orgcrime.htm)
5. Razzoqova F. Odam savdosi asr muommosi. Namangan haqiqati №54(19466). 2018,7-iyul
6. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – T.: “O'zbekiston”,2008.
7. Qodirov R. Odam savdosi – umumjahon miqyosdagi muommo \ Xalq so'zi, 2008, 17-oktabr
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Birlashgan Millatlar Tashkiloting Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida”gi Qarori \ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2003, 9-10-son, 150-modda
9. Kun.uz

⁹ Kun.uz